KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	




МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Дие́ра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Salardbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDiy MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	



SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH- SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI

Murtazayeva Gulrux Isabek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm va mehmonxona biznesi kafedrası

tayanch doktranti

E-mail: gulrukhmurtazaeva@gmail.com

ORCID: 0009-0003-7928-0462

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida rekreatsiya va davolash-sog'lomlashtirish turizmi turizm industriasining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Global miqyosda aholi salomatligiga bo'lgan e'tiborning ortib borishi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish jarayonlarining faollashuvi, shuningdek, stress va surunkali kasalliklar ulushining ko'payishi mazkur turizm turiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida mavjud rekreatsiya resurslari asosida sog'lomlashtirish maskanlarini tashkil etish bilan bog'liq nazariy jihatlar tahlil qilinib, ushbu yo'nalishni rivojlantirishning ilmiy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: davolash-sog'lomlashtirish turizmi, katalog, GIS, turistik-rekreatsioon xizmatlar, kurortologiya, tibbiy turizm, balneologik resurslar.

Abstract. Currently, recreational and medical-health tourism is considered one of the most rapidly developing sectors of the global tourism industry. At the international level, the growing attention to public health, the promotion of healthy lifestyles, as well as the increasing prevalence of stress and chronic diseases have significantly intensified demand for this type of tourism. This article focuses on theoretical analyses related to the establishment and development of health-improvement facilities based on recreational resources in the Surxondaryo Region, highlighting the scientific foundations for advancing this sector.

Key words: medical and health tourism, catalog, GIS, tourist-recreational services, resortology, medical tourism, balneological resources.

Аннотация. В настоящее время рекреационный и лечебно-оздоровительный туризм в странах мира рассматривается как одно из наиболее динамично развивающихся направлений туристской индустрии. На глобальном уровне рост внимания к здоровью населения, активное продвижение здорового образа жизни, а также увеличение распространённости стрессовых состояний и хронических заболеваний существенно повышают спрос на данный вид туризма. В статье основное внимание уделено теоретическому анализу вопросов создания и развития оздоровительных объектов на основе рекреационных ресурсов Сурхандарьинской области, а также обоснованию научных подходов к развитию данного направления.

Ключевые слова: лечебно-оздоровительный туризм, каталог, ГИС, туристско-рекреационные услуги, курортология, медицинский туризм, бальнеологические ресурсы.



KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida turizm sohasini jadal rivojlantirish, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, hududlarning ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlarini kengaytirish hamda mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonga sayohat" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million kishiga, respublikaga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonini esa 9 million kishiga yetkazish vazifasi belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida zamonaviy talablar va jahon tajribasi asosida tibbiy-sog'lomlashtirish xo'jaligini barqaror rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishida ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, rekreatsiya — bu dam olish, sog'liqni tiklash, tabiat go'zalligidan bahramand bo'lish hamda insonning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan faoliyatlar majmuasidir. O'zbekistonda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish muammolari, shuningdek, davolash-sog'lomlashtirish turizmi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borishda K.X. Abduraxmonov, N.S. Ibragimov, B.Yu. Mirbabayev, S.S. Ro'ziyev, N.E. Ibadullayev, B.X. Turayev, B.Sh. Safarov, B. Navruz-zoda, Z.I. Usmanova, M.T. Aliyeva, A.A. Eshtayev, Z.T. Abdulkakimov, A.T. Mirzayev, A.N. Norchayev, Z.N. Turayev, Z.S. Abriyev, M.Z. Nurfayziyeva, N.Y. Shaymanova kabi respublikamiz olimlari tomonidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan [1–3]. Ushbu tadqiqotlar rekreatsion resurslardan samarali foydalanish, sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini rekreatsiya hamda sog'lomlashtirish turizmi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning qarashlari, ilmiy fikr va mulohazalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida mavzuni yoritish uchun tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublikada turizm sohasini jadal rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, rekreatsiya va turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish hamda infratuzilmani takomillashtirish orqali turizmni iqtisodiyotning strategik yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, turizm sektorining investitsion jozibadorligi va faolligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ayni paytda, ayrim hududlarda mavjud rekreatsiya resurslari salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmasligi, rekreatsion destinatsiyalar to'g'risidagi axborotlarning tizimli shaklda taqdim etilmaganligi, shuningdek, xorijiy sayyohlar uchun hududning noyob tabiiy imkoniyatlarini yoritib beruvchi ilmiy asoslangan manbalar yetishmasligi ushbu yo'nalishda izchil tadqiqotlar olib borish zaruratini kuchaytiradi.

Istiqbolli rekreatsiya obyektlari negizida servis xizmatlarini rivojlantirish maqsadida geografik axborot bazasini yaratish va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatidagi rekreatsiya obyektlarini to'liq qamrab oluvchi katalog ishlab chiqildi. Katalog tarkibida ekoturistik obyektlar (muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va noyob landshaftlar), sanatoriyalar va dam olish maskanlari, mineral buloqlar, g'orlar, ziyoratgohlar, turizm qishloqlari hamda tarixiy yodgorliklar aks ettirildi.

Katalog xaritalarini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida statistik, qiyosiy-solishtirma tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi. Mazkur katalog ilmiy tadqiqotchilar, soha mutaxassislari va turizm sohasiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, viloyatning rekreatsiya resurslari va turistik salohiyatini tahlil qilishda muhim kartografik qo'llanma vazifasini bajaradi.

Dissertatsiya tadqiqoti davomida Surxondaryo viloyatining veb-katalogi hamda an'anaviy bosma nashr uchun mo'ljallangan katalogi ishlab chiqildi. An'anaviy kataloglar asosan nashr etish uchun mo'ljallangan bo'lib, viloyatdagi sanatoriyalar, dam olish maskanlari, tabiiy-ekoturistik destinatsiyalar va madaniy yodgorliklar haqidagi to'liq va ishonchli ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Turistik xarita va atlaslarda rekreatsion obyektlar, transport yo'nalishlari, mehmonxonalar va xizmat ko'rsatish nuqtalari belgilab ko'rsatiladi hamda turistlar uchun qulay yo'nalish tanlashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.




Rekreatsion-turistik obyektlar kataloglari muayyan hududda joylashgan turizm va dam olish obyektlari haqidagi to'liq, tizimli va tavsifiy ma'lumotlar majmuasini ifodalaydi. Ushbu kataloglar aholining dam olish, sog'lomlashtirish va turizm ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi obyektlar to'g'risidagi tizimli axborotni taqdim etuvchi muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

Rekreatsiya obyektlari kataloglari — muayyan hududda joylashgan tabiiy, madaniy, tarixiy hamda turistik ahamiyatga ega obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlovchi tizimli ma'lumotlar bazasi yoki nashr hisoblanadi. Mazkur kataloglar hududning rekreatsion salohiyatini baholash, turistik oqimlarni samarali boshqarish, investitsiya yo'nalishlarini belgilash hamda marketing faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Katalog ma'lumotlarining to'liqligi va ilmiy asoslanganligi rekreatsion hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi, chunki ular orqali mahalliy va xorijiy investorlar, sayyohlar hamda davlat boshqaruvi organlari aniq va ishonchli axborotga ega bo'ladilar. Kataloglarning asosiy maqsadi rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, turistik yo'nalishlarni rejalashtirish va rivojlantirish, hududning rekreatsion salohiyatini baholash, shuningdek, iqtisodiy va ekologik tahlillar uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida Surxondaryo viloyatida mavjud shifobaxsh buloqlarning geografik joylashuvi va xususiyatlari, shuningdek, ular negizida shakllangan davolash-sog'lomlashtirish maskanlarining ixtisoslashuvi hamda sig'imini aks ettiruvchi katalog ishlab chiqildi. Mazkur elektron katalog orqali viloyatda joylashgan shifobaxsh buloqlar, ular asosida barpo etilgan sanatoriyalar, ularning hududiy joylashuvi va ixtisoslashuvi to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati yaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Surxondaryo viloyati mineral buloqlari katalogi¹

Yaratilgan katalog tarkibida viloyat hududida ajratilgan davolash-sog'lomlashtirish turistik rayonlari, shuningdek, ularning tarkibida kelgusida barpo etilishi rejalashtirilayotgan zonalar bo'yicha ilmiy tahlillar keltirilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm obyektlarini xaritalashtirish jarayonida ko'pincha tabiiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy turistik obyektlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyati rekreatsiya obyektlari negizida shakllangan davolash-sog'lomlashtirish turizmi maskanlari, ekoturistik obyektlar, ziyoratgohlar hamda tarixiy-madaniy obyektlarning hududiy joylashuvi asosiy tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. ArcGIS dasturi yordamida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga tayangan holda rekreatsiya obyektlari va davolash-sog'lomlashtirish turizmi xaritalarini yaratish uchun besh bosqichdan iborat metodika ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. Mazkur metodika ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlarni o'z ichiga oladi (2-rasm).

1 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



REKREATSIYA OBYEKTлари VA DAVOLASH-SOGʻLOMLASHTIRISH TURIZMI XARITALARINI YARATISH USULI



2-rasm. Rekreatsiya obyektlari va davolash-sogʻlomlashtirish turizmi xaritalarini yaratish usuli²

Surxondaryo viloyatining davolash-sogʻlomlashtirish turizmi boʻyicha veb-katalogini (ArcGIS Dashboard asosida) tayyorlash jarayoni bir nechta ketma-ket bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatida joylashgan sanatoriyalar, sogʻlomlashtirish markazlari, mineral buloqlar hamda boshqa rekreatsion obyektlar boʻyicha interaktiv veb-katalog ishlab chiqildi. Mazkur katalog ArcGIS Online platformasidan foydalangan holda tayyorlandi va foydalanuvchilarga obyektlarning joylashuvi, tavsifi, statistik koʻrsatkichlari hamda filtrlar orqali qulay tanlash imkoniyatini taqdim etadi.

2 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Veb-katalog turizm sohasi mutaxassislari, sayyohlar va mahalliy aholi uchun hududdagi sog'lomlashtirish resurslari to'g'risida tezkor va ko'rgazmali axborot beruvchi samarali vosita hisoblanadi. Katalog tarkibiga Surxondaryo viloyatida joylashgan ziyoratgohlar, tarixiy yodgorliklar hamda turizm qishloqlari to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritilgan.

Loyihani tayyorlashda foydalanilgan vositalar

Loyihani amalga oshirishda Esri ekotizimiga kiruvchi quyidagi GIS vositalaridan foydalanildi:

- ArcGIS Online — ma'lumotlarni joylashtirish, saqlash va ulashish imkonini beruvchi bulutli GIS platforma;
- Web Map — obyektlarni xaritaga joylashtirish, pop-up oynalar, simbolika va filtrlash parametrlarini sozlash uchun mo'ljallangan asosiy xarita muharriri;
- ArcGIS Dashboard — xarita, statistika, grafiklar va filtrlarni yagona interfeysda aks ettiruvchi interaktiv boshqaruv paneli;
- Feature Layers — sanatoriyalar, mineral buloqlar va boshqa rekreatsion obyektlarning geografik ma'lumotlarini saqlash va xaritada tasvirlash uchun foydalaniladigan qatlamlar.

Ishlar ketma-ketligi

1. Ma'lumotlarni yig'ish. Surxondaryo viloyatidagi davolash-sog'lomlashtirish obyektlari bo'yicha ularning nomi, joylashuvi, tavsifi, ko'rsatiladigan xizmatlari, aloqa ma'lumotlari va tasviriy materiallar to'plandi. Obyektlarning geografik koordinatalari aniqlanib, yagona jadval shakllantirildi.


2. Ma'lumotlarni GIS formatiga tayyorlash. Yig'ilgan ma'lumotlar tozalandi, yagona formatga keltirildi va funksional qatlamlar bo'yicha guruhlandi (sanatoriyalar, mineral buloqlar, dam olish zonalari).

3. ArcGIS Online platformasiga yuklash. Tayyorlangan ma'lumotlar Feature Layer sifatida joylashtirildi. Har bir qatlam uchun mos ikonka, ranglar va pop-up oynalar (tasvir, tavsif, manzil) sozlandi.

4. Web Map yaratish. Dashboard uchun asos bo'luvchi interaktiv xarita ishlab chiqildi. Unda qatlamlar joylashtirildi, toifalar bo'yicha filtrlash imkoniyati yaratildi, fon xaritalar tanlandi va obyektlar pop-up dizayni ishlab chiqildi.

5. Dashboard yaratish. Web Map asosida interaktiv boshqaruv paneli shakllantirildi. Unda xarita paneli, obyektlar soni bo'yicha statistik vidjetlar, diagrammalar (doira va ustunli grafiklar), tanlangan obyekt haqida ma'lumot paneli hamda kategoriya bo'yicha filtrlar joylashtirildi.

6. Sinov va yakuniy dizayn. Dashboardning funksionalligi sinovdan o'tkazildi, mobil qurilmalar uchun moslashuvi ta'minlandi, dizayn soddalashtirildi va foydalanishga tayyor yakuniy holatga keltirildi (3-rasm).



3-rasm. Surxondaryo viloyatining davolash-sog'lomlashtirish turizmi bo'yicha veb-katalogi³

3 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi davolash-sog'lomlashtirish turizmi obyektlarini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, shu bois Surxondaryo viloyati hududida joylashgan sanatoriya va dam olish maskanlari, mineral buloqlar, shuningdek, aholi salomatligini tiklashda bevosita foydalanilayotgan g'orlar bilan bog'liq ma'lumotlar bazasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan sanatoriya va ayrim davolash-sog'lomlashtirish maskanlarining ixtisoslashuvi⁴

Sog'lomlashtirish maskani nomi	Manzili	Geografik koordinatalari	Ixtisoslashuvi
Termiz marvaridi	Termiz tumani, Uchqizil qo'rg'oni, At-Termiziy ko'chasi	37°21'13.5" sh.k.; 67°14'40.4" shq.u.	Yurak-qon tomir, endokrin va moddalar almashinuvi kasalliklari (qalqonsimon bez kasalliklari, qandli diabet, fermentopatiyalar, metabolik sindrom), yallig'lanish va teri kasalliklari
Xo'jaipok	Oltinsoy tumani, Jobu MFY, Navro'z ko'chasi, 126-uy	38°11'08.4" sh.k.; 67°43'39.1" shq.u.	Teri, kardiologik (aritmia, gipertenziya, yurak yetishmovchiligi), ginekologik, tayanch-harakat tizimi va asab tizimi kasalliklari
Omonxona	Boysun tumani, Inkabod MFY, Omonxona qishlog'i	38°14'14.8" sh.k.; 67°18'50.4" shq.u.	Ovqat hazm qilish tizimi (jumladan gastrit, o't qopi kasalliklari, I-II darajali jigar sirrozining dastlabki bosqichlari), endokrin tizim (qandli diabet), suyak-mushak tizimi kasalliklari
Sangardak	Sariosiyo tumani, Sangardak MFY	38°30'11.4" sh.k.; 67°37'34.8" shq.u.	Yuqori nafas yo'llari, yurak-qon tomir kasalliklari
Balxin	Denov tumani, Turkiston ko'chasi, 35-uy	38°16'00.2" sh.k.; 67°53'45.3" shq.u.	Oshqozon-ichak yo'li, jigar va o't yo'llari, bo'g'imlarda tuz yig'ilishi va yallig'lanishi, buyrak hamda siydik yo'llari kasalliklari
Janub davosi	Sherobod tumani, Chorbog' MFY	37°33'31.1" sh.k.; 66°35'31.9" shq.u.	Nafas yo'llari, qandli diabet va boshqa endokrin kasalliklar
Sherobod shifo	Sherobod tumani, Chorbog' MFY	37°33'30.2" sh.k.; 66°35'07.3" shq.u.	Nafas olish tizimi (astma), bronxit, allergiya, teri, asab, yurak-qon tomir va endokrin tizim kasalliklari
Xoliyor Mengliboyev	Qiziriq tumani, Yetimqum MFY	37°41'24.1" sh.k.; 67°17'60.0" shq.u.	Yurak-qon tomir, ginekologik va endokrin tizim kasalliklari
Surxon	Termiz tumani, Jo'yijangal MFY	37°15'03.4" sh.k.; 67°20'13.5" shq.u.	Yurak-qon tomir va endokrin tizim kasalliklari
Xursanoy	Termiz tumani, Uchqizil qo'rg'oni	37°20'28.4" sh.k.; 67°12'52.8" shq.u.	Nafas olish a'zolari kasalliklari, qandli diabet va boshqa endokrin kasalliklar
Jayronxona tibbiy reabilitatsiya va fizioterapiya davlat muassasasi	Termiz tumani, Yangiariq QFY, Qoraxon mahallasi	37°19'50.3" sh.k.; 67°24'08.1" shq.u.	Suyak-bo'g'im kasalliklari (revmatizm, poliartrit, radikulit, osteoxondroz), allergik kasalliklar
Mo'jizaviy shifo Medical	Jarqo'rg'on tumani, Yangiobod mahallasi	37°31'06.3" sh.k.; 67°22'54.6" shq.u.	Yuqori nafas yo'llari, yurak-qon tomir kasalliklari




4 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatining turistik-rekreatsiya obyektlari tarkibida ekoturistik obyektlarga, jumladan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, betakror landshaft manzaralari hamda g'orlarga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida Surxondaryo viloyatida sanatoriya-kurort zonalarini tashkil etish maqsadida Oltinsoy tumanida joylashgan tanlab olingan Xo'jaipok mineral bulog'i atrofida istiqbolda sanatoriya-kurort zonasini barpo etish imkoniyatlarini baholash ishlari amalga oshirildi. Mazkur maqsadda masofadan zondlash materiallari asosida buloq atrofi hududining rivojlanish holati bo'yicha qiyosiy tahlillar olib borildi (2-jadval).

2-jadval. Masofadan zondlash materiallari asosida Xo'jaipok mineral bulog'i atrofida joylashgan turistik infratuzilma obyektlarining qiyosiy tahlili⁵

№	Kuzatilgan vaqt	"Google Earth Pro" dasturidan olingan surat	№	Kuzatilgan vaqt	"Google Earth Pro" dasturidan olingan surat
1	2014-yil		3	2020-yil	
2	2015-yil		4	2025-yil	


Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad yillar kesimida mineral buloq atrofiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi hamda ular uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish infratuzilma obyektlari ulushidagi o'zgarishlar dinamikasini aniqlashdan iborat bo'ldi. Masofadan zondlash materiallari asosida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, tanlab olingan Xo'jaipok mineral bulog'i atrofida so'nggi 10–13 yil davomida turistik infratuzilma obyektlari soni va tashrif buyuruvchi sayyohlar salmog'i barqaror ravishda ortib borgan.

Mazkur jarayonning asosiy omillari sifatida nafaqat buloq suvining shifobaxsh xususiyatlari, balki viloyat aholisi uchun turistik manzilgohning qulay hududiy joylashuvi, buloq atrofi yondosh hududlarining musaffo tabiiy muhiti, xizmat ko'rsatish xarajatlarining nisbatan arzonligi hamda aholining daromad darajasiga mos kelishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillarni qayd etish mumkin. Shu bois, sanitariya talablariga to'liq javob bermagan holatlarga qaramasdan, mazkur hudud viloyat miqyosida mavsumiy dam oluvchilar eng ko'p tashrif buyuradigan istiqbolli turistik maskanlardan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan holatlarni inobatga olgan holda, kelgusida mazkur hududda davolash-sog'lomlashtirish zonasini tashkil etish aholining sifatli dam olishini ta'minlash, sog'lig'ini tiklash hamda hududning rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Shuningdek, tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida joylashgan, shifobaxsh balchiq qatlamlariga ega bo'lgan, shuningdek, sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik shifobaxsh suv obyektlari mavjud hududlarda sanatoriya-kurort zonalarini tashkil etish imkoniyatlari bo'yicha kompleks tahlillar amalga oshirildi (4-rasm).

5 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



4-rasm. Surxondaryo viloyatining davolash-sog'lomlashtirish turizmi obyektlari asosida rayonlashtirilishi⁶

Viloyat hududida joylashgan shifobaxsh buloqlar (yodobromli, seravodorodli, oltingugurtli), boshqa balneologik resurslar, karst g'orlari, o'ziga xos tabiiy landshaftlar, subtropik mevazorlar va bog'lar, arxeologik topilmalar, qadamjolar hamda ziyoratgohlar nafaqat davolash-sog'lomlashtirish turizmining, balki tarixiy, ziyorat, ekoturizm va agroturizm turlarining rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyati mamlakatimizda turistik-rekreatsion imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlardan biri sifatida davolash-sog'lomlashtirish (sanatoriya, kurortlar, pansionatlar va boshqa sog'lomlashtirish maskanlari), gastronomik (milliy taomlar), tarixiy (arxeologik yodgorliklar), etnoturistik (urf-odatlar, milliy liboslar), hamda ekoturistik (tabiiy obyektlar) salohiyati bilan alohida ajralib turadi [4,5].

Xulosa qilib aytganda, rekreatsion-turistik resurslar dam olish, davolanish, istirohat va sog'lomlashtirish maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy va madaniy manbalar majmuasini tashkil etadi. Ushbu

6 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



resurslardan oqilona foydalanish insonlarning mehnat faoliyati qobiliyatini tiklashga, sog'lig'ini mustahkamlashga hamda umr davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi. Respublikamiz hududlarida davolash-sog'lomlashtirish turizmi obyektlari faoliyatini o'rganishda zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalanish sohani yanada rivojlantirish, mavjud muammolarni manzilli va samarali hal etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati tabiiy-geografik sharoiti, balneologik resurslari, shifobaxsh mineral buloqlari, g'orlari hamda noyob rekreatsion landshaftlari bilan davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda mavjud sanatoriyalar, sog'lomlashtirish markazlari va mineral buloqlar tahlili ularning hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi hamda sig'imi bo'yicha muayyan tizim shakllanganini, biroq ushbu imkoniyatlardan foydalanish darajasi hali to'liq ochilmaganini ko'rsatdi. Xususan, rekreatsiya obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning tarqoq holatda bo'lishi, yagona raqamli axborot bazasining yetishmasligi hamda hududning davolash-sog'lomlashtirish imkoniyatlarini keng targ'ib qiluvchi zamonaviy kartografik va GIS mahsulotlarining kamligi ushbu yo'nalish rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida geografik axborot tizimlari asosida ishlab chiqilgan katalog va veb-katalog Surxondaryo viloyatining davolash-sog'lomlashtirish turizmi resurslarini tizimli ravishda jamlash, hududiy tahlil qilish va vizual ko'rinishda taqdim etish imkonini berdi. ArcGIS platformasi asosida yaratilgan interaktiv xaritalar va Dashboard yechimlari rekreatsion obyektlarning joylashuvi, ixtisoslashuvi hamda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini aniq aks ettirib, soha mutaxassislari, investorlar va sayyohlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masofadan zondlash materiallari asosida o'tkazilgan tahlillar esa ayrim istiqbolli hududlarda, xususan Xo'jaipok mineral bulog'i atrofida so'nggi yillarda turistik infratuzilma va tashrif buyuruvchilar oqimi barqaror oshib borayotganini tasdiqladi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi: birinchidan, Surxondaryo viloyatida davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish bo'yicha yagona raqamli GIS-platformani joriy etish va uni respublika turizm axborot tizimlari bilan integratsiya qilish zarur; ikkinchidan, shifobaxsh buloqlar va sanatoriya-kurort zonalarini joylashgan hududlarda sanitariya-gigiyena talablari va ekologik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish lozim; uchinchidan, hududning davolash-sog'lomlashtirish turizmi salohiyatini targ'ib etish maqsadida zamonaviy kartografik mahsulotlar, interaktiv xaritalar va mobil ilovalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, balneologik resurslar asosida yangi sanatoriya-kurort zonalarini tashkil etishda ilmiy asoslangan rayonlashtirish va GIS-tahlillarga tayangan holda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishda geografik axborot tizimlaridan foydalanish hududning rekreatsion salohiyatini to'liq ochib berish, turistik oqimlarni samarali boshqarish hamda aholining sifatli dam olishi va sog'lig'ini tiklashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy vosita ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulxakimov, Z. T. Mintaqada rekreatsiyadan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Samarqand, 2020-yil. — 25 b.
2. Mirzayev, A. T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarishning uslubiy jihatlar: o'zgarishlar va istiqbollar: monografiya. — Farg'ona: "Al-Ferganus" nashriyoti, 2021-yil. — 164 b.
3. Shaymanova, N. Y. O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2025-yil.
4. Murtazayeva, G. I. Davolash-sog'lomlashtirish turizmi rivojlanishining tarixiy jihatlar // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. — 2025-yil, № 3/2. — B. 54–60.
5. Murtazayeva, G. I. Rekreatsiya resurslari negizida mintaqalarda davolash-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish istiqbollari // "Barqaror iqtisodiy rivojlanish va 'O'zbekiston–2030' strategiyasining ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro iqtisodchilar forumi materiallari to'plami. — Toshkent, 2025-yil. — B. 241–244.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>